

2019-yil 1-noyabr holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida Farg'ona viloyatida 6366 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2604 taga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 6,3 mingta (21,7 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 35,4 mingtani tashkil etgan.






Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yilning 1-noyabr holatiga 35374 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 4,9 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 21,5 % sanoatda, 8,1 % qurilishda, 25,6 % savdoda, 4,0 % tashish va saqlash, 4,9 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 2,9 % axborot va aloqa, 2,2 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 25,9 % boshqafaoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Umumiy soni, ming birlik		01.11.2019 yil	
	01.11.2018 yil	01.11.2019 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
Jami	28678	35374	23,3	100,0
<i>shundan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1518	1719	13,2	4,9
Sanoat	6129	7603	24,0	21,5
Qurilish	2388	2875	20,4	8,1
Savdo	6121	9055	48,1	
Tashish va saqlash	1155	1404	21,6	4,0
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1314	1729	31,6	4,9
Axborot va aloqa	970	1028	6,1	2,9
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	685	795	16,1	2,2
Boshqa turlari	8398	9166	9,1	25,9

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha (9055 ta) savdo, (7603 ta) sanoat, (2875 ta) qurilish, (1719 ta) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, (1729 ta) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, (1404 ta) tashish va saqlash, (1028 ta) axborot va aloqa, (795 ta) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda (9166 ta) boshqa faoliyat turlariga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 34891 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 6213 ta (21,7 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 25,6 % savdo, 21,6 % sanoat, 8,1 % qurilish, 4,9 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 4,9 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,0 % tashish va saqlash, 2,9 % axborot va aloqa, 2,2 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 25,7 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Farg'ona shahri (6256 ta), Qo'qon shahri (4693 ta), Marg'ilon shahri (3502 ta), Uchko'prik tumani (1791 ta) va Dang'ara tumani (1672 ta) shahar, tumanlar hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha So'x tumani (810 ta), Furqat tumani (831 ta) hamda Yozyovon (740 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-oktyabr oylarida 6366 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 2604 taga ko'pdir.


Yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar asosiy qismi Farg'ona (1002 ta), Qo'qon (755 ta), Marg'ilon (601 ta) shaharlarida, Oltiariq (367 ta), Quva (405 ta) va O'zbekiston (307 ta) tumanlarida tashkil etilgan.


Eng kam So'x (86 ta) hamda Yozyovon (120 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalarning Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (1498 ta), savdoda (2780 ta), qurilishda (451 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (239 ta), tashish va saqlashda (241 ta), yashash va ovqatlanish xizmatlarida (397 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (82 ta), va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (88 ta) tashkil etilgan.

2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Tijorat korxonalari

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019-yil 1-noyabr holatiga 29013 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar - 9905 ta, oilaviy korxonalar - 3604 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 14845 ta va boshqalar 2341 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Mas'uliyati cheklangan jamiyati




Xususiy korxonalar




Oilaviy korxonalar




Unitar korxonalar



Aksiyadorlik jamiyati



Boshqalar




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar


2019-yil 1-noyabr holatiga ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 401 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 141 taga yoki 54,2 % ga o'sgan. Asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

2019-yil 1-noyabr holatiga xorijiy kapital ishtirokida 398 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, asosiy qismi Farg'ona 133 ta (33,4 %), Qo'qon 57 ta (14,3 %), Marg'ilon 23 ta (5,8 %), Quvasoy 23 ta (5,8) shaharlarida, Farg'ona tumanida 20 ta (5,0 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar So'x tumani 3 ta (0,8 %), Furqat tumani 5 ta (1,3 %), Qo'shtepa tumani 7 ta (1,8 %), Bag'dod tumani 8 ta (2,0 %), Buvayda tumani 8 ta (2,0 %) va Yozyovon tumani 4 ta (1,0 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining 278 tasi qo'shma, 123 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining faollik darajasi, %



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Farg'ona viloyati	398	100,0
Farg'ona shahar	133	33,4
Qo'qon shahar	57	14,3
Quvasoy shahar	23	5,8
Marg'ilon shahar	23	5,8
<i>Tumanlar:</i>		
Oltiariq tumani	19	4,8
Qo'shtepa tumani	7	1,8
Bog'dod tumani	8	2,0
Buvayda tumani	8	2,0
Beshariq tumani	6	1,5
Quva tumani	15	3,8
Uchko'prik tumani	10	2,5
Rishton tumani	9	2,3
So'x tumani	3	0,8
Toshloq tumani	12	3,0
O'zbekiston tumani	20	5,0
Farg'ona tumani	20	5,0
Dang'ara tumani	16	4,0
Furqat tumani	5	1,3
Yozyovon tumani	4	1,0

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar soni 120 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 63 taga ko'paygan.

Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar asosiy qismi Farg'ona 34 ta (28,3 %), Qo'qon 14 ta (11,7 %), Marg'ilon 3 ta (2,5 %), Quvasoy 2 ta (5,8) shaharlarida, Farg'ona tumanida 4 ta (3,3 %) hissalariga to'g'ri keladi.


2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda



Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi - 16 ta, Rossiya Federatsiyasi - 17 ta, J.Koreya Respublikasi - 13 ta, Qirg'iziston Respublikasi - 1 ta, Turkiya Respublikasi - 8 ta, Germoniya-1, Latviya – 1, Buyuk Britaniya – 1, Ozarbayjon - 1, Armaniston – 3, Amerika Qo'shma shtatlari – 1, Shvetsiya qirolligi - 1 tadan va yana bir qator boshqa davlatlar bilan hamkorlikda yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek bir nechta davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyat yurgazishga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 63 ta, savdoda 21 ta, qishloq va o'rmon xo'jaligi 15 ta, qurilishda 3 ta va boshqa korxonalarda 18 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

2019-yilning yanvar-okyabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxonalar va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-noyabr holatiga viloyatda ro'yxatdan o'tgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 29,2 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1-noyabr holatiga qaraganda 26,2 % ga oshgan.

Ro'yxatdan o'tgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 5294 tasi (18,2 %) Farg'ona, 4136 tasi (14,2 %) Qo'qon, 3155 tasi (10,8 %) Marg'ilon shaharlariga, 1573 tasi (5,4 %) Uchko'priq va 1441 tasi (4,9 %) Dang'ara tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar kesimida jamidagi ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

•Kichik tadbirkorlik subyektlarining eng katta ulushi

•Kichik tadbirkorlik subyektlarining eng kichik ulushi



Farg'ona shahar
18,3 %



Beshariq tumani
2,7 %



Qo'qon shahar
14,3 %



Rishton tumani
2,7 %



Marg'ilon shahar
10,9 %



Furqat tumani
2,2 %



Uchko'pik tumani
5,3 %



So'x tumani
2,2 %



Dang'ara tumani
5,0 %



Yozyovon tumani
1,8 %


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ro'yxatdan o'tgan jami 29153 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 9021 tasi (30,9 %) - savdoda, 7554 tasi (25,9 %) - sanoatda, 2857 tasi (9,8 %) - qurilishda, 1662 tasi (5,7 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1721 tasi (5,9 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 1389 tasi (4,8 %) - tashish va saqlashda, 1026 tasi (3,5 %) - axborot va aloqa sohasida, 603 tasi (2,1 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 3320 tasi (11,4 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-oktyabr oyida 6092 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2018-yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2870 taga ko'paygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Farg'ona (953 ta), Qo'qon (728 ta), Marg'ilon (589 ta) shaharlarida, Oltiariq (353 ta) va Buvayda (294 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam So'x (80 ta), Furqat (134 ta) hamda Yozyovon (110 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (2779 ta), sanoatda (1495 ta), boshqa turdagi xizmatlar (338 ta), qurilishda (449 ta), tashish va saqlashda (241 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (225 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (397 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (82 ta), hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (86 ta) tashkil etilgan.


Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1-noyabr holatiga 3638 tani tashkil etib, ulardan 3604 tasi yoki 99,1 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 34,7 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat olib borayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 45,8 % yoki 1650 tasi sanoat, 14,0 % yoki 503 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 19,1 % yoki 688 tasi savdo, 7,6 % yoki 273 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2,1 % yoki 76 tasi tashish va saqlash, 0,9 % yoki 32 tasi axborot va aloqa, 1,2 % yoki 44 tasi qurilish, 0,9 % yoki 34 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 8,4 % yoki 304 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %




Iqtisodiy faoliyat turlari 2019 yil 1-noyabr kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni, birlikda

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Farg'ona viloyati	947	100,0
Farg'ona shahar	101	10,7
Qo'qon shahar	45	4,8
Quvasoy shahar	20	2,1
Marg'ilon shahar	68	7,2
<i>Tumanlar:</i>		
Oltiariq tumani	68	7,2
Qo'shtepa tumani	31	3,3
Bog'dod tumani	58	6,1
Buvayda tumani	59	6,2
Beshariq tumani	57	6,0
Quva tumani	47	5,0
Uchko'prik tumani	59	6,2
Rishton tumani	120	12,7
So'x tumani	10	1,1
Toshloq tumani	48	5,1
O'zbekiston tumani	46	4,9
Farg'ona tumani	68	7,2
Dang'ara tumani	11	1,2
Furqat tumani	29	3,1
Yozyovon tumani	2	0,2

2019-yil yanvar-oktyabr oylarida 947 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 357 taga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Rishton tumani (120 ta), Farg'ona shahar (101 ta), Marg'ilon shahar (68 ta) va Farg'ona tumani (68 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam So'x tumani (10 ta), Yozyovon tumani (2 ta) hamda Dang'ara tumani (11 ta) viloyatlarida tashkil etilgan.

2019-yil yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 39,5 % yoki 374 tasi sanoat, 34,6 % yoki 328 tasi savdo, 14,4 % yoki 136 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari, 3,6 % yoki 34 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,6 % yoki 6 tasi qurilish, 1,3 % yoki 12 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,5 % yoki 14 tasi tashish va saqlash, 0,2 % yoki 2 tasi axborot va aloqa hamda 4,3 % yoki 41 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.: 71-230-87-37